

MA’NAVIY-MA’RIFIY VA TA’LIM TARBIYA MASALALARIDA ABDULLA AVLONIY IJODINING TUTGAN O’RNI

Mansurov Sardorbek Sirojiddin o‘g‘li *
Harbiy ta’lim fakulteti 1-bosqich 101-guruh talabasi *

ANNOTATION: Ushbu maqola atoqli ma’rifatparvar adib Abdulla Avloniyning ijtimoiy faoliyati va ijtimoiy qarashlarida ma’rifatparvarlikning o’rni, shuningdek, uning “Turkiy Guliston yoxud axloq” asarida keltirilgan ma’naviy-ma’rifiy tarbiyaga oid qarashlari, ta’lim-tarbiyaning millat ma’naviyati, ma’rifatini yuksaltirishdagi ahamiyati va kelajak avlodni, millatni ma’naviyatlari, ma’rifatli, komil qilib tarbiyash kabi masalalarning qisqacha tahliliga bag’ishlanadi.

KEY WORDS: Pedagogika, ta’lim-tarbiya, axloq, ma’rifatparvarlik, jadidchilik, yangi usul maktablari..

INTRODUCTION

Abdulla Avloniyning ta’lim-tarbiya sohasidagi qarashlari o’zbek xalqining ruhiyati, turmush tarzi, milliy qadriyatlar bilan chambarchas bog’langanligi adibning boy pedagogik merosi ta’lim-tarbiya masalalarini rivojlantirish, uni o’quvchilar qalbida shakllantirishda axloqiy va ma’naviy barkamol yoshlarni tarbiyalashda milliy maktab va qimmataho manba bo’lib xizmat qilganini o’rganib chiqish davr talabiga aylanmoqda. Hozirgi kunda ushbu mavzu dolzarbli haqida gapirsak, jadidlarning yetuk vakili Ismoilbek va uning davridagi jadidichilarning ma’rifatparvarlik g’oyalari haqidagi ma’lumotlar bilish, bugungi kunda ma’naviy hayotimizdagi qadr-qiyamatini bilish uning ilmiy merosini asrashdek vazifalarni oldimizga qo’yadi. Ma’lumki, jadidchilik eng avvalo ma’rifatparvarlik harakati sifatida paydo bo’lgani uchun jadidlar o’z faoliyatlarini maktablar ochish, darsliklar yozish va matbuot nashrlarini chiqarish bilan boshladilar. Jadidlarning til, yozuv va imlo bilan bog’liq qarashlari ularning ana shu amaliy harakatlarida ham aks etgan edi. Bu xalqimizni ma’rifatli qilishga bo’lgan urunishlar edi.

Har bir millatning o’z ma’naviy qiyofasi mavjud. Bugungi kunda har tomonlama taraqqiy topib borayotgan jamiyatimizda ma’naviyatni yuksaltirish yuksak vazifalardan biridir. Ma’naviyatimizni yanada rivojlantirishda esa millatimiz tarixini, ma’naviy qiyofasini o’zida badiiy aks ettirgan tarixiy badiiy hamda ilmiy asarlarning ahamiyati va o’rni beqiyosdir. O’zbek adapiyotida bunday asarlar juda ko’p. Ular yosh avlodni barkamol qilib voyaga yetkazishda muhim ahamiyatga ega. Bu jihatdan, taniqli o’zbek adibi Abdulla Avloniyning maktab uchun yaratgan to’rt qismdan iborat “Adabiyot yoxud milliy she’rlar” hamda “Birinchi muallim”, “Turkiy guliston yoxud axloq”, “Ikkinchi muallim”, “Maktab gulistoni” kabi darsliklari ham xarakterli bo’lib hisoblanadi. Bu asarlardagi mukammal fikrlarning g’oyaviy to’liqligi, ta’lim-tarbiya tizimiga va tushunchalariga doir fikrlarning ilmiy-nazariy asoslanganligi yuqorida fikrlarimiz dalilidir. Shuningdek, Abdulla Avloniy ijodiy merosi bilan ilk darsliklarning mukammal yaratuvhisi sifatida ham gavdalanganligi, asarlaridagi ta’lim va tarbiyaga doir tushunchalarining, g’oyaviy-badiiy mushohadalarning tadqiq qilinganligi, qolaversa, mavzuning dolzarbli ma’rifatparvar adib, serqirra ijodkor Abdulla Avloniyning ijodida bugungi kunning eng muhim masalasi-ta’lim va tarbiyaga doir fikrlarning dalili hikoyalar, she’riy lavhalar misolida yoxud majoziy xarakterga ega hikoyatlar asosida ochib berilishi asnosida ko’zga tashlanadi. 2017- yilning 3-avgust kuni O’zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mamlakatimiz ijodkor ziyorilari vakillari bilan uchrashuv o’tkazdi. Ushbu uchrashuda madaniyat va san’at sohasida yuzaga kelgan ko’plab muammolar o’rtaga tashlandi. Mazkur yig’ilishda madaniyat, ommaviy axborot vositalari, adapiyot va san’at sohasini tubdan isloh qilish maqsadida amalga oshiriladigan keng miqyosli ishlar xususida so’z bordi, yosh iste’dodlar tarbiyasi, madaniyatimiz va adapiyotimizni rivojlantirish maqsadida yangi g’oya, tashabbus va takliflar bildirildi: “Biz uchun hech qachon kun tartibidan tushmaydigan yana bir o’ta muhim masala borki, unga alohida to’xtalib o’tish zarur

deb bilaman, u ham bo'lsa, unib-o'sib kelayotgan yosh avlodimiz, farzandlarimiz tarbiyasi bilan bog'liq. Buyuk bobomiz Abdulla Avloniy aytganidek, bu masala biz uchun, haqiqatdan ham, yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir." Shu ma'noda Abdulla Avloniyning ta'lim-tarbiya sohasidagi qarashlari o'zbek xalqining ruhiyati, turmush tarzi, milliy qadriyatlar bilan chambarchas bog'langanligi adibning boy pedagogik merosi ta'lim-tarbiya masalalarini rivojlantirish, uni o'quvchilar qalbida shakllantirishda axloqiy va ma'naviy barkamol yoshlarni tarbiyalashda milliy mакtab va qimmatbaho manba bo'lib xizmat qilganini o'ргanib chiqish davr talabiga aylanmoqda. Abdulla Avloniyning mакtab uchun yaratgan asarlari va ularda axloq-odob tushunchalarining yoritilishi tarbiya masalasining ifodasi nafaqat badiiy, balki noyob tarixiy-pedagogik, ta'limiy va qomusiy yodgorlik hisoblanadi. Avloniy asarlari bilan yaqindan tanishar ekanmiz, yana bir bor shunga iqror bo'lamizki, uning asarlarida ifoda etilgan ta'limiy, tarbiyaviy-g'oyaviy, falsafiy pedagogik hikmatlar o'zining hayotiy mazmuni bilan bizni bugun ham hayratda qoldiradi. Avloniy asarlarining tub ma'no-mohiyatini belgilab beradigan insonparvarlik, mehnatsevarlik, vatan- parvarlik g'oyalari va axloq-odob tamoyilida hozirgi zamon uchun ham behad ibratli bo'lgan saboqlar borligini alohida ta'kidlab o'tmoq joiz. Ijodkor o'zbek xalqining san'ati va adabiyoti hamda milliy madaniyatini, xalq ta'limi ishlarini yo'lga qo'yishda kata xizmatlar qilgan adib, jamoat arbobi va iste'dodli pedgogdir. U birinchilardan bo'lib o'zbek teatrini professional teatrga aylantirdi, matbuot, maorif sohasi rivojiga hissa qo'shdi. U Turkistonda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni amalga oshirgan jadidlar harakatining ko'zga ko'ringan vakillaridan biri bo'lib hisoblanadi. Avloniyning mehnati yuksak qadrlanib unga o'zbek madaniyatini va adabiyotini yuksaltirishda, xodimlar tayyorlashda uzoq yillik mehnati uchun 1925-yilda "Mehnat qahramoni" unvoni, 1930-yilda "O'zbekiston maorifi zarbdori" unvoni berilgan. Shuningdek, adib milliy ta'lim-tarbiya tizimini yaratishga beqiyos hissa qo'shganligi uchun 2020-yil 30-sentyabr sanasida "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan taqdirlandi. Avloniy "Usuli jadid" maktablari uchun to'rt qismdan iborat "Adabiyot yoxud milliy she'rlar" hamda "Birinchi muallim" (1912), "Turkiy guliston yoxud axloq" (1913), "Ikkinchi muallim" (1915), "Maktab gulistoni" (1917) kabi darsliklar yaratdi. Bu asarlarida hamda publisistik maqolalarida dunyo xalqlari madaniyatini, ilm-fanni, mакtab va maorifga chorlaydi. XX asr boshlariда yangi maktablar uchun yozilgan alifbelar anchagina edi. Shular orasida Avloniyning "Birinchi muallim" asari ham o'ziga xos o'ringa ega. Avloniy uni yozishda Saidrasul Aziziyning "Ustozi avval" asariga suyanadi. Avloniyning "Ikkinchi muallim" asari "Birinchi muallim" kitobining uzviy davomidir. Biz birinchi kitobni shartli ravishda, alifbe deb, ikkinchi kitobni xrestomatiya deb atashimiz mumkin.

Avloniyning ta'lim-tarbiyaga oid asarlari ichida "Turkiy guliston yoxud axloq" asari katta ahamiyatga molik axloqiy va ta'limiy tarbiyaviy asardir. Asarda insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonliklardan qaytaruvchi ilm-axloq haqida fikr haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, u bola tarbiyasining roli haqida fikr yuritib: "Agar bir kishi yoshlida nafsi buzulib, tarbiyasiz, axloqsiz bo'lib o'sdimi, bunday kishilardan yaxshilik kutmoq, yerdan turib yulduzlarga qo'l uzatmak kabitidir", deydi. Uning fikricha, bolalarda axloqiy xislatlarning tarkibi to'g'risida ijtimoiy muhit, oilaviy sharoit va bolalarning atrofidagi kishilar ahamiyatga ega. O'zbek pedagogikasi tarixida Avloniy- birinchi "Pedagogika", ya'ni bola tarbiyasining fanidir" deb ta'rif berganlar.

Xulosa qilib aytganda, Avloniy ijodiy merosi ma'naviy-ma'rifiy tarbiya g'oyasining targ'ibotchisidir. Uning asarlarida ilgari surilgan ta'lim-tarbiyaga oid fikrlar milliy ma'naviyatimiz rivojlanishida qimmatli bir manba bo'lib xizmat qiladi. Bu ulug' adib ijodi, amaliy faoliyati bugungi kun yoshlarimiz uchun ibrat mакtabi, desak adashmaymiz.

REFERENCES:

- [1] Xodjayev B.X . Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. - T.: «Sano standart» nashriyoti, 2017 yil. -416 bet.
- [2] Tursunov.Sh.R Talabalarda vatanparvarlik ruhini shakllantirishda innovatsion yondashuvlar: P.f.f.d.(PhD) darajasini olish uchun yozilgan diss. Samarqand. SamDU 2023-y. 72-bet.
- [3] N.Jalilov. "Bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'qituvchilarining kreativ sifatlarini rivojlanishida" P.f.f.d.(PhD) darajasini olish uchun yozilgan diss. Toshkent: TDPU 2024 y 3-7 b.
- [4] Boboxonov A., Maxsumov M. Abdulla Avloniy. Pedagogik faoliyati. T., 1996.
- [5] Abdulla Avloniy . Tanlangan asarlar. 1-jild T., 1998 yil., Abdulla Avloniy . Tanlangan asarlar. 2-jild T., 2006 yil.